

# **“Ishonch” teleradiokompaniyasi faoliyati bilan tanishildi**



Viloyat hokimi Ulug’bek Qosimov Muzrabot tumanidagi tashrifini yakunlab, viloyat “Ishonch” teleradiokompaniyasi faoliyati, mavjud sharoitlari bilan tanishdi hamda telekanal xodimlari va jurnalistlar bilan suhbatlashdi.

Xususiy teleradiokanalning moddiy-texnika bazasi va mavjud imkoniyatlarini ko’zdan kechirgan viloyat rahbari hududlardagi muammolarni olib chiqib, asl holatni bilishda, ularni hal etilishida ko’makchi bo’layotgan mazkur jamoaga o’z minnatdorchiligini bildirdi hamda kelgusida ham hamkorlikdagi ishlar davom ettirilishini ta’kidladi.

Shundan so’ng, viloyat rahbari Termiz shahrining “Shodlik” mahallasida ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalarni yarashtirish komissiyasi yig’ilishida ishtirok etdi. Viloyat hokimi bilan suhbatdan so’ng 2 ta oila yarashtirildi. Mas’ullarga ajrim yoqasidagi oilalar bilan ishslash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash borasida amalga oshirilishi lozim bo’lgan chora-tadbirlar belgilab berildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)